

BO'LAJAK TARIX FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK KOMPITENSIYALARI

Shoymardonova Dilfuza Raxmatovna

Buxoro shahar 6-ixtisoslashtirilgan maktabining

Oliy toifali tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8394360>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning muhimligi ahamiyati o'rganilgan, maktab o'qituvchilarining hozirgi intellektual qobiliyatlarini inobatga olgan holda qaraydigan bo'lsak har bir tarix fani o'qituvchisi zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ilg'or texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatini shakllantirishi juda muhim jarayon hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, faoliyat turlari, pedagogika, mahorat, IT texnologiya.

Har bir bo'lajak tarix fani o'qituvchisi pedagogik mahoratni to'liq egallashi uchun: birinchidan, u o'zi izlanayotgan sohasini zamon talablaridan kelib chiqib o'zlashtirishi, ya'ni yangiliklardan doim xabardor bo'lishi; ikkinchidan, psixologik-pedagogik bilimga ega bo'lishi (o'quvchilar xarakteriga mos usullardan foydalana olish, ularning psixologik holatidan kelib chiqish); uchinchidan, bo'lajak tarix fani o'qituvchisida o'z kasbiga fidoiylik va intiluvchanlik hissining mavjudligi. Rus olimi I.P. Rachenko pedagogik san'atning bir qismi sifatidagi pedagogik mahorat haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'radi: "Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, ya'ni zamon talablariga javob bera oladigan kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, hamda qiziqitira olishi o'quvchilarda mazkur fanga oid bilimlarni takomillashtira olmg'i, rivojlangan pedagogik tafakkuri va intuitivligi tushuniladi, axloqiy me'yor sifatida tushuniladi. Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Innovatsiya (ing innovationas — kiritilgan yangilik) ma'nosida keladi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda eng avvalo ularda yangilikka intilish hissini shakllantirish, o'z kasb faoliyatidan kelib chiqqan holda yangi texnologiyalarni qo'llay olish mahorati bo'lishi juda muhim hisoblanadi.

«Innovatsion texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'yektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir». Innovatsion texnologiyalarga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va

vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta'rif beradi. Innovatsion texnologiyani fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi. Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanishni anglatar ekan, mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko'rinishga ega. Innovatsiyalarning qudrati jamiyat turmush tarzi, salomatligini himoyalash, ilmiy salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu munosabat bilan innovatsiyalardan keng va samarali foydalanish. Shularni inobatga olgan holda tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda eng innovatsion texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini ham oshirish masalasi juda muhim hisoblanadi. Bunda IT texnologiyalari, AKT dan foydalanish ko'nikmalari, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish kompetensiyalari kabi jarayonlar juda muhim hisoblanadi.

Tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning afzalliklari:

- *Tarix fani o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;*
- *o'z vaqtida aloqalarni ta'minlanishi;*
- *Tarix fani tushunchalarini amaliyotga qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;*
- *o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlarini taklif etilishi;*
- *motivatsiyani yuqori darajada bo'lishi;*
- *Fan yuzasidan o'tilgan materialni yaxshi eslab qolishi;*
- *O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashishi;*
- *o'z-o'zini baholashning o'sishi;*
- *o'quvchilarning tariff fani predmetning mazmuniga, o'qish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;*
- *nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay balki, tanqidiy va mantiqiy fikrlarning rivojlanishi;*
- *muammolar yechish ko'nikmalarni shakllanishi.*

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllantirish mumkin bo'lib, u an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning subyekti, o'quvchi esa obyekti deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o'quvchilar va

o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi. Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish, motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan, holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada tarix o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan bir qancha texnologiyalar keltirilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari ko'pincha keng qo'llaniladi. Rivojlanayotgan ta'limda pedagogik ta'sirlar shaxsning psixologik ma'lumotlarining rivojlanishini kutadi, rag'batlantiradi, yo'naltiradi va tezlashtiradi. O'quv faoliyatining asosiy motivatsiyasi kognitiv qiziqishdir. Metodologiya oqilona va hissiy, faktlar va umumlashmalar, jamoaviy va individual, axborot va muammoli, tushuntirish va qidiruv usullarini birlashtiradi. O'quv jarayonida o'quvchilar turli tadbirlarga jalb qilinadi

O'qitish tarixiy mazmun va harakatning adekvat usullarini o'zlashtirish sohasida yangi va ortib borayotgan o'quvchilar talabini o'rganish rivojlanishga rahbarlik qilishga chaqiriladi. O'quvchilarning aqliy faoliyati yetarlicha qiyin, ammo kirish mumkin bo'lishi kerak. Yetarli darajadagi murakkabliksiz tafakkur mustaqillikning yuqori darajalariga erishish uchun muhim shart-sharoitlarga ega emasligi isbotlangan. Talabalar faoliyatining optimal qiyinligi faqat o'qituvchi tomonidan har bir sinfdagi pedagogik sharoitlarni hisobga olgan holda aniq belgilanishi mumkin. Darsda muloqotning pedagogik vaziyatlarini yaratish, har bir o'quvchining ish uslubida tashabbuskorlik, mustaqillik, tanlab olish imkoniyatini yaratish - bunday tarix darslari moslashuvchan tizimligi bilan ajralib turadi. Rivojlanayotgan ta'lim texnologiyasida darsni tashkil etishning belgilangan umumiy maqsadlari va vositalari o'qituvchi tomonidan darsning maqsadi, uning tematik mazmuniga qarab konkretlashtiriladi. Shunday qilib, o'quvchini o'z potentsialiga yo'naltirilgan ta'lim faoliyatiga jalb qilgan holda, o'qituvchi talaba oldingi mashg'ulotlarda qanday faoliyat usullarini o'zlashtirganligini, bu jarayonning psixologik xususiyatlari qanday ekanligini va talabalar tomonidan o'zlarining tushunish darajasini bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda tarix fanini o'qitishning yuqoridagi innovatsion usullari bir vaqtning o'zida ta'limni rivojlantirishiga va o'quvchini tarix fanini o'zlashtirish darajasini ko'tarishda va natijada oldinga qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga yetishga zamin yaratadi. Bunda dars jarayonida aniq natijaviyligi kafolatlangan bu kabi usullarni tizimli ravishda qo'llash oxir-oqibatda o'z tarixiga befarq bo'lmagan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

References:

1. Umedjanova M. L., Salikhov S. M., Salikhov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 271-276.
2. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
3. Salixov S. M., Salixov T. M. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – C. 1013-1019.
4. Salixov S. M. et al. Musobaqa oldi sportdagi stress va tayyorgarlikning psixologik

tomonlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 1039-1044.

5. Salixov S. M. et al. Hissiy irodaviy boshqaruv namoyon bo'lishining yosh va jins xususiyatlariga bog'liq o'zgarishi //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 915-920.

6. Salixov S. M. et al. Sport jarayonlarida o'zini o'zi boshqarish hissiy jarayonlarning o'ziga xosligi //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 1087-1092.

7. Salixov T. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

8. Mansurovich S. S. METHODOLOGY OF ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION LESSONS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 107-111.

9. Salixov T. Sportchilarning irodaviy sifatlarini shakllantirishda psixologik yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

10. Салихов Ш. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ СПОРТИВНЫХ ТРЕНЕРОВ //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 56-60.

11. Салихов Ш. ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 50-55.

12. salixov, shoxrux. (2023). INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA TADBIQ ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 40(40).

13. salixov, shoxrux. (2023). BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TIZIMI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 40(40).

14. Salixov, T. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 40(40).

15. Salixov, T. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 40(40).

16. YARASHOV M. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 17. – №. 17.

17. YARASHOV M. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA FANLARNI O 'ZARO INTEGRATSIYALASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 17. – №. 17.

18. YARASHOV M. BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING DARS JARAYONLARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH VOSITALARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.

19. Jobirovich, Yarashov Mardon. "TOOLS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATIONAL COURSES." EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE 2.4

(2022): 119-123.

20. Jobirovich, Yarashov Mardon. "EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL SYSTEM." EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE 2.4 (2022): 124-128.